

GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXSNING FUQAROLIK MA'SULIYATI MASALASI

Sh.Sh.Xudoyberganov

Qo'qon DPI o'qituvchisi

A. Xasanov

Qo'qon DPI Tarix fakulteti 4 - bosqich talabasi

“Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni, qadr –qimmatini hurmat qilish majburiyati emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart”

Sh.M.Mirziyoev

Anotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonida shaxsning fuqarolik ma'suliyati masalasi va muhim jihatlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maqolada mavjud kerakli sozlarni yozing

Globallashuv – bu xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan bog'langan milliy iqtisodiyotlar majmui sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibini o'zgartirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Transmilliylashtirish va mintaqaviylashtirish asosida iqtisodiyotning chambarchas bog'liqligi hisoblanadi. Shu asosida yagona jahon tarmog'i, bozor iqtisodiyoti, geoiqtisodiyot va uning infratuzilmalari shakllanmoqda, ko'p asrlar davomida xalqaro munosabatlarning asosiy xarakteri bo'lib kelgan davlat suvereniteti ta'sirining pasayishi sodir bo'lmoqda. Globallashuv jarayoni bu davlat tomonidan shakllantirilgan bozor tizimlari evolyutsiyasining natijasidir.

Buning asosiy natijasi – global mehnat taqsimoti, kapital, mehnat, ishlab chiqarish resurslarining dunyoviy miqyosdagi migratsiyasi (shuningdek, qoida tariqasida, kontsentratsiya), qonunchilikni, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlar madaniyati bir-biriga yaqinlashishi hamda birlashishidir. Globallashuv tizimli xususiyatga ega, ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi obektiv jarayondir. Globallashuv natijasida dunyo o'zining barcha subektlari bilan bog'lanib, tobe bo'lib bormoqda. Bir guruh davlatlar uchun umumiy bo'lgan muammolar sonining ko'payishi va birlashtiruvchi subektlarning soni va turlarining kengayishi mavjud

Globallashuvning kelib chiqishi haqidagi qarashlar doimo munozarali bo'lib kelgan. Tarixchilar bu jarayonni kapitalizmning rivojlanish bosqichlaridan biri deb hisoblaydilar. Iqtisodchilar bu jarayonni moliya bozorlarining transmilliylashuvidan

ekanligini ta'kidlab kelishmoqda. Siyosatshunoslar demokratik tashkilotlarning keng tarqalishiga urg'u berishadi. Madaniyatshunoslar globallashuvning namoyon bo'lishini madaniyatning g'arbiylashuvi, jumladan, Amerika iqtisodiy ekspansiyasi bilan bog'lashadi. Globallashuv jarayonlarini tushuntirishda axborot texnologiyalari yondashuvlari mavjud. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy globallashuv bir-biridan farq qiladi. Mintaqaviylashtirish globallashuv subekti bo'lib, texnologik va iqtisodiy rivojlanishning jahon qutblarini shakllantirishda kuchli kumulyativ samara beradi.

Shu bilan birga, „globallashuv“ so'zining kelib chiqishining o'zi shuni ko'rsatadiki, bu jarayonda yetakchi rolni ma'lum tarixiy bosqichlarda sodir bo'lgan xalqaro savdoning jadal o'sishi egallaydi. Birinchi marta „globallashuv“ so'zini („jiddiy xalqaro savdo“ degan ma'noni anglatadi) 1850-yillarning oxirida Fridrix Engelsga yozgan maktublaridan birida Karl Marks ishlatgan. deb yozgan edi: „Endi jahon bozori haqiqatan ham mavjud. Kaliforniya va Yaponiyaning jahon bozoriga chiqishi bilan globallashuv amalga oshdi“ Globallashuv jarayonlarida xalqaro savdoning xuddi shunday yetakchi roli, Marks davrida boshlangan oldingi globallashuv 1930-yillarda, barcha rivojlangan davlatlar qattiq proteksionizm siyosatiga o'tgandan so'ng yakunlanganidan dalolat beradi.

Bugungi voqelik zamon va makon jihatdan jiddiy muammolar girdobini hosil qildiki, bu muammolar hox salbiy, hox ijobiy ko'rinishda bo'lsin ijtimoiy munosabatlarda globallashuv tushunchasi bilan izohlanmoqda. Shunday ziddiyatli davrda mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotini rivojlantirishda jamiyatning barcha sohalarida fuqarolik ma'suliyati va javobgarligi ko'nikmasini shakllantirish voqelikdagi islohotlarning pirovard maqsadlarini belgilaydigan muhim omildir. “Nega deganda, aynan shu masalalar bizning bugungi va ertangi kunimizni, farzandlarimiz, nabiralarimiz taqdiri va kelajagini, bir so'z bilan aytganda, hayot-momotimizni hal qilishi hech kimga sir emas”¹ Jamiyatdagi mavjud muammolar, yechimi topilmayotgan masalalarni hal etish faqat muayyan soha xodimlarinigina vazifasi bo'lmay, balki har birimizning fuqaro sifatida ma'naviy-axloqiy burchimizga aylanmog'i zarur.

Darhaqiqat, 32 yillik mustaqillik davrimizda biz ulkan yutuqlarga erishdik, kimlar uchundir bu erishilgan yutuqlarimiz hozirgi kun uchun yetarlidек baholanishi mumkin. Ammo, xalqimiz oldiga qo'ygan “Hozirgi va kelajak avlod oldidagi yuksak ma'suliyatni his qilish”¹ masalasi ertangi kun uchun ham barcha sohalarda muayyan natijalarga erishishimiz zarur ekanligini ko'rsatib turibdi. Bu muammolarni yechimini

¹ Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz-Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.-461-462 b.

topishda xalq bilan davlat organlarini o'rtasida doimiy hamkorlikni haqqoniy ta'minlash va muntazam nazoratda ushlab turish davr talabidir.

Ana shunday dolzarb va yuksak maqsadlarni oldindan ko'ra olgan va o'zining hayot mazmuni darajasida his qilayotgan Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoevning ilgari surayotgan g'oyalari, islohotlari va istiqbolli rejaları fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek avvalo "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot" Davlat dasturining asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, davlat organlarining fuqarolar bilan o'zaro munosabatlari yuzasidan yondashuvni tubdan qayta ko'rib chiqilishi zarur.xisoblanadi. Bu borada aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularning qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etish darkor. Ushbu tushunchalar, bugungi va ertangi kun uchun isbot talab qilib bo'lmaydigan haqiqat bo'lib, davlat organlarining ma'suliyatini oshiradi. Ammo, fuqaro uchun qanday talablarni qo'yishi darkor. Fikrimizcha, eng avvalo har bir fuqaro shaxs sifatida o'ziga yuklangan vazifalarni sidqidildan bajarishda insoniy burch va fuqarolik ma'suliyati tushunchalarini mazmun mohiyatini bilishi va amaliy his eta olishi talab etiladi.

Xo'sh ma'suliyat va burch o'zi nima? Mavzuga oid izohli lug'atlarda fuqarolik ma'suliyati tushunchasi quyidagicha izohlangan.

Ma'suliyat–ijtimoiy ahamiyatli burch va vazifalarning bajarilishiga, oqibatiga, xatti-harakat negizida yotgan axloqiy tamoillarga amal qilinishiga, shaxs tomonidan amalga oshirilishiga jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishligiga burchlilikdir.²

Ma'suliyat quyidagi jihatlarga ega bo'ladi:

- yosh avlodni jamiyatga tayyorlash jamiyat a'zolariing burchi, ammo tarbiya va ta'limga ota-ona va muallimlar javobgarligi;
- vazifani bajarishga faqat salohiyatli mutahassislar ma'suligi;
- kishilar hamma narsaga emas, o'ziga topshirilga ishga ma'suligi. Va boshqalardan iborat.

Ammo, ma'suliyatsizlik, amoralizm (axloqsizlik) kishilar munosabatlarida axloq me'yorlarni inkor etish,umum e'tirof etilgan xulqatvor me'zonlariga yengil-yelpi munosabatta bo'lish. odob ilmida me'yordan og'ish tarzida baholanadi va buning uchun ma'naviy javobgarlikni hosil qiladi . Burch esa –axloq falsafasining fundamental kategoriyalaridan biri bo'lib, bu tushuncha, oila va boshqa shu kabi tuzilmalarning shaxs zimmasiga qo'ygan talablariga nisbatan insonning axloqiy mas'uliyatini, majburiyatini, ularni bajarish ichki zaruriyat ekanligini anglashni ifodalaydi. Huquqiy jihatdan esa, burch –fuqarolik huquqi sub'ektlari zimmasiga qonun hujjatlari, shartnoma, ish muomalasi odatlari bo'yicha yuklangan majburiyatdir.

² Falsafa –qomusiy izohli lug'at.- Toshkent.“Sharq” nashriyoti.2004y.130 b

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning barcha a'zolari o'zlariga belgilangan vazifalarni o'z vaqtida ongli, burch va mas'ulliyat hissi bilan bajarishlari talab qilinadi. Zero, Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida takidlab o'tganlaridek; o'zimiz o'zimizga xiyonat qilmasak, "o'zimiz o'zimizni aldamasak, halol-pok bo'lib mehnat qilsak, ko'zlangan barcha marralarimizga albatta yetamiz".³

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz-Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-461-462 b.
2. Falsafa – qomusiy izohli lug'at.- Toshkent. "Sharq" nashriyoti. 2004y. 130 b
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojjatnomasi.- Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.-78

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojjatnomasi.-Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.-78